

TIBBIYOTDA DORIVOR O'SIMLIKLAR XOM-ASHYOSINI TAYYORLASH USULLARI

Jurayeva Dastagul Ergashevna,

Tosheva Lola Sunnatovna,

Mamarjabova Dilfuza Ergashevna

Samarqand Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi,

Farmatsiyaga oid fanlar kafedrasi o'qituvchilari

Annotatsiya:

Hozirgi kunga kelib dorivor o'simliklarga bo'lgan talab yanada ortib bormoqda. Shuning uchun dorivor o'simliklarni o'rganish, ularning kasalliklarga ta'sir kuchi bilish, ulardan dori-darmon vositalarini tayyorlash dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Ushbu maqolamizda dorivor o'simliklarni yetishtirish, dorivor o'simliklarning kasalliklarga tasir kuchi va ulardan tibbiyotda dori-darmon tayyorlash haqida eng so'nggi ma'lumotlar keltirildi.

Kalit so'zlar: Dorivor o'simliklar, alkaloidlar, barg, gul, meva, urug', glikozid, fermer, o'rmon, ildiz, ildizpoya, tuganak yoki piyoz.

Ma'lumki, dunyo miqyosida farmatsevtika korxonalarida ishlab chiqarilayotgan dori vositalarining taxminan 50% i dorivor o'simliklar xom-ashyosidan tayyorlanmoqda. Mutloq ko'pchilik mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika sanoatini jadallik bilan rivojlanishi bunday korxonalarning dorivor o'simliklar xom-ashyosiga bo'lgan talabni keskin ortishiga sabab bo'lmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, tabiiy holda o'suvchi dorivor o'simliklar zaxiralarining chegaralanganligi tufayli farmatsevtika sanoati korxonalarining dorivor o'simliklar xom-ashyosiga bo'lgan talabini, asosan, dorivor o'simliklar o'stirish orqaligina qondirish mumkin.

Biroq Dorivor o'simliklar o'stirish texnologiyasi fani shu vaqtga qadar mustaqil darslik sifatida ishlab chiqilgan emas. Buning ustiga hozirgi vaqtgacha mamlakatimizning ixtisoslashgan, fermer, o'rmon, dehqon va boshqa mulkchilik shaklidagi xo'jaliklarida dorivor o'simliklarni, ularni o'stirish texnologiyalari mukammal ishlab chiqilmaganligi sababli, ilmiy asoslanmagan holda parvarish qilinmoqda. Shu sababli ham farmatsevtika sanoatini sifatli, mo'l, tannarxi arzon va ekologik sof xom-ashyo bilan ta'minlash katta muammo bo'lib qolaveradi. Bu holat,

albatta, dorivor o'simliklar xom-ashyosi yetishtirish bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklarni dorivor o'simliklar o'stirish texnologiyalarini puxta egallagan mutaxassislar bilan ta'minlashni taqozo qiladi.

O'zbekiston tibbiyotida qo'llaniladigan dori vositalarining 38-40% ini dorivor o'simliklardan olinadigan preparatlar tashkil qiladi. Ba'zi og'ir kasalliklarni davolashda ishlatiladigan muhim ahamiyatli ayrim dorivor preparatlarni (yurak glikozidlari, qator alkaloidlar, terpenlar, saponinlar, steroid va fenolli birikmalar va boshqa biologik faol moddalar) shu vaqtgacha sintez yo'li bilan olib bo'lmaydi. Ularni olish manbai hozircha faqat o'simliklar bo'lib qolmoqda.

Dorivor o'simliklarni izlab topish va o'rganish ishi hozir ham keng ko'lamda olib borilmokda. Yangi dorivor o'simliklarni topishda xalq tabobatida ishlatiladigan dorivor mahsulotlarni o'rganish, o'simliklarni filogenetik qardoshligidan foydalanish bilan bir qatorda ma'lum tuman florasini yalpi kimyoviy analiz qilish katta ahamiyatga ega.

Kasallikni davolash va uning oldini olish maqsadida dorivor o'simliklardan dori turlari tayyorlanadi yoki ulardan dorivor preparatlar va sof holdagi dorivor moddalar olinadi. Buning uchun shu o'simliklarning kasalliklarni davolash xususiyatga ega biologik faol moddalarga boy bo'lgan qismlaridan-ya'ni, ba'zi o'simliklarning er osti organlaridan (ildiz, ildizpoya, tuganak yoki piyoz), ba'zilarining esa ustki organlaridan (barg, gul, meva, urug, po'stloq yoki o't o'simliklarning butunlay er ustki qismi o'ti) foydalaniladi. Ba'zi dori turlari, dorivor preparat va toza moddalar o'simlik hamda hayvonlarning birlamchi ishlash yo'li bilan olingan efir moylari, smolalar, moy va yog'lar, daraxt elimlari, zaharlar (ilon va asalari zaharlari), lanolin, prapolis va boshqalardan ham tayyorlanadi va olinadi.

Dorivor o'simliklarni saqlash va qayta ishlash texnologiyasida dori turlari tayyorlash hamda dorivor preparatlar va toza moddalar olish uchun ishlatiladigan dorivor o'simliklar va hayvon organlari yoki ulardan birlamchi ishlash yo'li bilan olingan mahsulotlar dorivor mahsulotlar deb ataladi.

Dorivor o'simliklarni tayyorlash, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi fanining asosiy negizi «farmakognosiya» fani bo'lib, uning tibbiyotda ahamiyati katta. Chunki, kimyo fanining, ayniqsa sintetik kimyoning yuqori darajada taraqqiy qilishiga va ko'plab kuchli ta'sir etuvchi dorivor moddalar sintez yo'li bilan olinishiga qaramay tibbiyotda qo'llaniladigan dorivor preparatlarning 10 ga yaqin



o'simliklardan olinadi. Bu ko'rsatkich ayrim kasalliklarni-masalan, yurakqon tomirlari kasalliklarini davolash sohasida ishlatiladigan dorivor preparatlarda 80 % ni tashkil qiladi. Kelajak tibbiyotida o'simliklardan olinadigan dorivor preparatlar va dorivor o'simliklarni yanada ko'proq ishlatish rejalashtirilmokda.

Dorivor o'simliklar va ulardan olinadigan tabiiy preparatlarga tibbiyot sohasida bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Bu hol asosan sintez yo'li bilan olingan har bir kimyoviy dorivor preparatni uzoq vaqt uzluksiz ravishda iste'mol qilish inson va hayvon organizmida turli noxush o'zgarishlarni yuzaga keltirishi bilan izohlanadi. SHunga ko'ra oxirgi vaqtlarda butun dunyoda o'simlik dorivor preparatlariga-fitopreparatlarga va dorivor o'simliklarga ehtiyoj ortmoqda. Bu esa o'z navbatida dorivor o'simliklarni saqlash va qayta ishlash texnologiyasi fani ahamiyatining yanada oshishiga va uni yanada chuqur o'rganishga olib keladi.

O'zbekiston tibbiyotida qo'llaniladigan dorivor vositalarning 38-40% ni o'simliklardan olinadigan preparatlar tashkil qiladi. Ba'zi og'ir kasalliklarni davolashda ishlatiladigan muhim ahamiyatli ayrim dorivor preparatlarni (yurak glikozidlar, qator alkaloidlar, terpenlar, saponinlar, steroid va fenolli birikmalar va boshqa biologik faol moddalar) shu vaqtgacha sintez yo'li bilan olib bo'lmadi. Ularni olish manbai hozircha faqat o'simliklar bo'lib qolmoqda.

Hamdo'stlik mamlakatlari juda katta turli geografik hududlardan tashkil topgan. Bu hududlar tropikdan tashqari hamma iqlimli tumanlarni: abadiy muzlik bilan qoplangan baland tog'lar, tundra, tayga o'rmonlari, cho'l, yarim cho'l, sahro hamda nam subtropik va boshqalarni o'z ichiga oladi. SHuning uchun ham ularning florasi juda boy. U 19000 dan ortiq o'simlik turlaridan tashkil topgan. SHular ichida dorivor o'simliklar ham ko'p. Ammo, hozirgi vaqtda ularni hammasidan ham tibbiyotda kasalliklarni davolashda to'liq foydalanilmayapdi.

Farmatsevtika Farmatsevtikasanoati va dorixonalar ehtiyojini qondirish maqsadida har yili katta miqdorda dorivor o'simliklar mahsuloti tayyorlanadi. Mahsulotlar asosan tabiiy holda o'sadigan dorivor o'simliklardan yig'iladi. Yil sayin dorivor o'simlik xom ashyo mahsulotlariga bo'lgan talab oshmoqda. Bu esa o'z navbatida tayyorlanadigan xom-ashyo mahsuloti miqdorining oshib borishiga sabab bo'lmoqdalar.

Tabiiy holda o'sadigan dorivor o'simliklarning xom ashyo zahirasi har qancha ko'p bo'lmasin, farmatsevtika sanoatiningdorivor o'simlik mahsulotlariga bo'lgan



talabiri qondirish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunda tabiiy sharoitda o'sadigan o'simliklarni populyasiyasini saqlab qolish va ularni xom ashyolarini tayyorlashni belgilangan tartibda amalga oshirish talab etiladi. Bu esa mahsulotlarning tayyorlashni ilmiy-amaliy asoslangan rejasini ishlab chiqish va unga qat'iy rioya qiliishni taqozo etadi.

Dorivor o'simlik xom ashyolarini tayyorlashda quyidagi ishlar bajariladi:

1. Dorivor o'simliklarni tayyorlash ishini uyushtirish.
2. Mahsulotni yig'ish.
3. Yig'ilgan mahsulotni quritish.
4. Yig'ilgan mahsulotni standart (tavar) holiga keltirish.
5. Mahsulotlarni idishlarga joylashtirish (qadoqlash).
6. Mahsulotlarni transport vositalari bilan jo'natish.
7. Dorivor mahsulotlarni saqlash.

Dorivor o'simliklarni tayyorlashni uyushtirishda quyidagilar bajariladi va tashkil qilinadi:

- ma'lum tuman buyicha dorivor o'simliklarning tayyorlash rejasini bilish va uni tumanda yig'ish mumkin bo'lgan dorivor mahsulot miqdoriga solishtirgan holda aniqlash;
- ro'znoma va radio orqali xalq o'rtasida qanday dorivor o'simliklar qachon, qanday qilib, qaerda yig'ilishi, quritilishi, sotib olish bahosi hamda qaerda topshirilishi lozimligi to'g'risida to'liq axborot beradigan tegishli tushuntirish ishini olib borish;
- xudi shu ko'rsatilgan masalalarni to'liq aks ettiradigan varaqalar chop ettirish va uni aholi ko'p yig'iladigan, hammaga yaxshi ko'rinadigan erlarga osib qo'yish;
- dorixona qoshida dorivor o'simlik xom-ashyolari tayyorlovchilar uchun qisqa muddatli o'qish (tushuntirish) ni tashkil etish;
- dorivor mahsulotni yig'iladigan erni aniqlash;
- dorivor o'simliklar ko'p o'sadigan joyini va zahirasini aniqlash;
- dorivor mahsulot yig'iladigan joyni tanlaganda iloji boricha transport vositasi (avtomashina) boradigan va aholi yashaydigan joydan olis bo'lmasligini hisobga olish kerak.

Dorivor o'simliklar havo ochiq paytida, shudring ko'tarilgach yig'ib olinadi. Shuni esda tutish kerakki, ko'pchilik o'simliklarning tarkibida zaharli moddalar bo'ladi. Bunday dorivor o'simliklardan tayyorlangan dorilarda zaharli moddalar biroz



ortiqroq bo'lsa ham kuchli zaharlaydi yoki turli kasalliklarga yo'liqtiradi. Adonis, angishvonagul, bangidevona, belladonna, issiriq, kuchala, marvaridgul, mingbosh, mingdevona va boshqalar shunday zaharli dorivor o'simliklar jumlasidandir. Shuning uchun o'simliklarni og'izga olmaslik, shuningdek ularni yig'ib olayotgan paytda qo'lni ko'zga urmaslik kerak. O'simliklarni yig'ib olgandan keyin qo'lni yaxshilab yuvish lozim.

Ifloslangan va kasallangan o'simliklarni yig'maslik kerak. Dorivor o'simliklarni yig'ib olishda ular kelajakda ham o'sib ko'payishi uchun bir qismini qoldirish zarur. Xulosa qilib aytganda ona tabiatimizda minglab dorivor giyohlar uchraydi. Ularning katta qismi o'rganilgan bo'lishiga qaramay, sanoat miqyosida keng foydalanilmaydi. Shu bois, oxirgi yillarda bu o'simliklarni sanoat miqyosida ishlab chiqarish faollashib boryapti.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Xoliqov K., O'zbekiston janubidagi dorivor o'simliklar, T., 1992;
2. Xolmatov X.X. va boshqalar Ruscha-lotinch-a-o'zbekcha dorivor o'simliklar lug'ati, Toshkent, 1992.
3. Xolmatov H.X., Ahm edov O. Farmakognoziya. - 1,2 qism. - Toshkent.: Fan, 2007. 13. Xolmatov X. X., Habibov. O'zbekiston dorivor o'simliklari. Toshkent, 1971.
- 4.Hojimatov Q.H., Yo'ldoshev K.Y., Shogulomov U.Sh., Hojimatov O.Q., Shifobaxsh giyoxlar dardlarga malham (Fitoterapiya), T., 1995;

